TIRNOQGUL (CALENDULA OFFICINALIS L.) NING MORFOBIOLOGIK XUSUSIYATLARI

[1]D. Sodiqova, [2]Sodiqova Sadoqat
[1]Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti b.f.f.d. [2]Biologiya yo‘nalishi 4-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.14212639

Annotasiya*. Ushbu maqolada Calendula officinalis o‘simligining geografik tarqalishi, tuzilishi va xususiyatlari haqida ma’lumot berilgan. Tirnoqgul, yoki boshqa nomi bilan "mahligul"- bu o'ziga xos o'simlik bo'lib, asosan ko'p yillik o'simliklar oilasiga mansubdir. U ko'pincha terak o'simliklari bilan birga o'sadi. Tirnoqgul rang-barang gullari bilan tanilgan bo'lib, parvarishi oson. Ularni bog'da, balkonlarda yoki ichki makonda dekorativ maqsadlarda o'stirish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *tirnoqgul, morfologik xususiyat, biologik xususiyat, geografiyasi, flavonoidlar,efir moylari,karotinoidlar.*

Аннотация. *В этой статье представлена информация о географическом распространении, структуре и характеристиках растения Calendula Officinalis. Бархатцы, или «махлигул» под другим названием-уникальное растение, относящееся преимущественно к семейству многолетних растений. Часто растет вместе с растениями тополя. Гвоздики известны своими яркими цветами, и за ними легко ухаживать. Их можно выращивать в саду, на балконе или в помещении в декоративных целях.*

Ключевые слова*: calendula officinalis, морфологическая характеристика, биологическая характеристика, география, флавоноиды, эфирные масла, каротиноиды.*

Abstract*. This article provides information on the geographical distribution, structure and characteristics of the Calendula officinalis plant. Calendula officinalis or "marigold" under another name, is a unique plant that belongs to the family of perennial plants. It often grows together with poplar plants. Carnations are known for their colorful flowers and are easy to care for. They can be grown in gardens, balconies or indoors for decorative purposes.*

Keywords: *calendula officinalis, morphological characteristics, biological characteristics, geography, flavonoids, essential oils, carotenoids.*

Kirish

Hozirgi paytda foydali xususiyatlarga ega o‘simliklarning introduksiyasi va ularni yangi muhit sharoitida madaniylashtirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyatimizning jadal rivojlanish bosqichida aholi farovonligini oshirish uchun o‘simlik xom-ashyolaridan oziq-ovqat, farmasevtika, tibbiyot sohalarida unumli foydalanish masalalarini hal qilish dolzarbdir. Shu bois foydali xususiyatga ega bo‘lgan yovvoyi o‘simliklarni madaniylashtirish, introduksiya qilish va yangi navlarini yaratish bo‘yicha respublikamiz olimlari izchillik bilan ilmiy - tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Dorivor tirnoqgul (*Calendula officinalis*) ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, qoqio‘tdoshlar (*Asteraceae*) oilasiga mansub. Bu o‘simlikning balandligi 30- 60 sm ga yetadi, vatani Janubiy Yevropa xisoblanadi [1]. Oilaning 20 dan oshiq turlari ma’lum, asosan o‘rta yer dengizi, Iron va Kanar orollarida keng tarqalgan. Yer yuzining ko‘pchilik davlatlarida manzarali va dorivor o‘simlik sifatida parvarish qilinadi. Tirnoqgul-qisqa kunli o‘simlikdir. Tirnoqgulning yer ustki novdalari tik bo‘lib shoxlangan, poya va barglari tuklar bilan qoplangan. Yorug‘sevar o‘simlik. Tirnoqgulning juda ko‘p navlari yetishtirilgan. Uning gullari sariq yoki och qizil rangda bo‘ladi.



Gullari savatda shakllanadi va xushbo‘y xid taratadi. Savatchaning atrofini kalta tilsimon gullar o‘rab turadi. Tilsimon gullarining rangi sariq va ochiqroq rangda, bo‘lib ustki tomoni yaltiroq va pastki tomoni to‘q rangli. Naysimon gullari mayda, sariq yoki to‘q jigarrangli. Vatanida iyul oyidan xavo xaroratining sovishigacha (noyabr oyigacha) gullash davom etadi. Meva va urug‘lari pishib yetiladi, urug‘larining unuvchanligi 4-5 yil saqlanadi. Hozirgi paytda o‘simlik urug‘idan ko‘paytiriladi. Manzarali o‘simlik sifatida XI asrgacha parvarish qilingan. Manzara xosil qilish maqsadida tirnoqgul o‘simligining urug‘lari xosildor va yetarlicha namlangan tuproqqa ekiladi. Agar bir to‘p o‘simlikdan xosil olish kerak bo‘lsa, 30x30 sm yoki 40x40 sm sxemada ekiladi [2]. Agar yo‘l chetlarida o‘simlikdan xar xil manzara (rabatka) xosil qilish rejalashtirilsa, o‘simlik orasi 7-10 cm, egat oralig‘ini 30-50 cm bo‘lishi maqsadga muvofiq xisoblanadi. Urug‘larning unib chiqishi 1-2 xaftadan so‘ng kuzatiladi, gullash 10 xaftadan keyin kuzatiladi [3]. Tirnoqgul ko‘chatlarini parvarish qilish aprelda issiqxona yoki parnikda boshlanadi, tayyor urug‘ko‘chatlari mayda egatlarga o‘tkaziladi . Kuz mavsumida mineral o‘g‘itlardan 1 m 2 maydonga 3-4 kg chirindi, 10-20 g superfosfat va 20-30 g kaliy xlorid ishlatiladi. Azotli o‘g‘itlarni (mochevina) 30-35 g/m2 maydonda tirnoqgulni asosiy yerga o‘tkazishdan oldin berilishi maqsadga muvofiq xisoblanadi[4]. Yoz mavsumining quruq va issiq paytlarida kechqurun sug‘orish amalga oshiriladi. Nisbatan tuproqning unumdorligi past bo‘lganda xar 4 xaftada mineral oziqlantirish amalga oshiriladi. Gullarining ochilish muddatlari uzaytirish uchun ochilib bo‘lgan to‘pgullarini (savat) uzib olish tavsiya etiladi.

Introduksiya qilinayotgan o‘simliklarning gullash jarayonini, gullarning changlanishini o‘rganish ularni ekologik va biologik jihatdan tavsiflashga imkon beradi. Ko‘pchilik olimlarning izlanishlari natijasida olingan ma’lumotlariga ko‘ra, hasharotlar, shamol yordamida yoki o‘zaro changlangan o‘simliklardan sun’iy yo‘l bilan changlanishining afzalligi, gullarning morfologiyasidagi va biologiyasidagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlik xususiyatlarini keltirib chiqaradi. O‘simliklarning gul tuzilishi, gullash biologiyasi, changlanish usullari va changdonlarning yetilish vaqtlarini o‘rganish - ulardagi seleksiya ishlarini olib borishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Demak, fenospektrdan ko‘rinib turibdiki, o‘simlik vegetatsiyasining boshlanishi va davomiyligi, mavsumiy g‘unchalash, gullash, meva hosil qilishi fazalarining davomiyligi va urug‘larning pishib yetilishi ob-havo sharoitiga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yoziev.L.X, Arabova.N.Z Dorivor o‘simlik “Toshkent-2017”
2. O‘.Ahmedov, A.Ergashev, ,A.Abzalov, M.Yulcheyeva, D.Mustafakulov. Dorivor o‘simliklar Yetishtirish Texnologiyasi va Ekologiya “Toshkent-2020”
3. Тухтаев Б.Е. Интродуксия лекарственных растений на засоленных землях Узбекистана: Автореф. дис. … докт. биол. наук. – Ташкент, 2009. – 38 с.
4. L.H. Yoziyev, Sh.A. Samatova. Manzarali o‘simliklar / Darslik / Qarshi: "Sharq" nashriyoti, 2023. – 335 b.